



**"ЭРКИН ВОҲИДОВ
ИЖОДИНИНГ МАЪНАВИЙ
ҲАЁТИМИЗДАГИ ЎРНИ ВА
АҲАМИЯТИ"**

EL ARDOG'IDAGI IJODKOR

Sh.K. Xujamberdiyeva, o'qituvchisi (NamDU)

Do'stning o'limiga qandoq ko'narmiz?

Jon parchasin yerga qo'shib ko'marmiz.

Ayrila – ayrila ado bo'lgach jon.

Do'stlar ketgan yurtga biz ham jo'narmiz.

Bahorning so'nggi kunlaridan birida buyuk bir inson dunyodan ko'z yumdi. Shoir ketdi. Borsa – kelmas yurtga, abadiyga. U ulug' edi, zabardast edi. Iqtidori beqiyos, xalq hurmati bisyor edi, u – Erkin Vohidov edi... .

Bu dunyoda abadiy narsalarning o'zi yo'q. Cho'qqisi osmonni o'pgan azim qoyalar ham kuni kelganda bir uyum toshga aylanishini, cheksiz ko'ringan ummon ham qaqragan cho'lga aylanishi mumkin. Inson o'zini dunyo hukmdori deb o'ylaydi, lekin aslida chin hukmdor bu vaqtdir. O'lim ham ana shu vaqtning bir ko'rinishi, xolos. Qani endi, bu o'lim odamlarni tanlab jonini olsa! Lekin, ming afsus, buning iloji yo'q. U bu safar o'zbek xalqini qaqshatib ketdi. Odat bo'yicha odamlarni qo'yishayotganda bir savol beriladi – marhum qanaqa odam edi? Biz ham shu savolga javob beramiz. Erkin Vohidov qanaqa inson edi? U o'z yurtini, xalqini, millatini jonidan ortiq suygan, shu sevgisini go'zal va betakror misralar orqali ifoda qila olishi iqtidoriga ega bo'lgan inson edi. Bu satrlar odamning yurak yuragiga yetib borar, insonni beixtiyor o'z go'zalligiga oshno qila olar edi.

Balki shuning uchun ham xalq orasida shunchalar mashhur bo'lgandir. Bu shoir o'z yurtini, xalqini bexad sevardi. Uning tuyg'ulari deyarli har bir asarida o'z aksini topgan edi.

Shu yerda bari qanday boshlanganini eslab o'tsak... .

Go'zal Farg'onaning Oltiariq tumanida ayozli qish kunlarining birida Cho'yanboy va Roziyaxon Vohidovlar oilasida o'g'il farzand dunyoga keldi. Unga yaxshi niyatlar bilan Erkin deb ism qo'ydilar. Kichkina shoir ota-onasining mehri soyasida ulg'aya boshladi. Ota-onasi kelajakda farzandlari komil inson bo'lishini, el-u yurtga sidqidildan xizmat qilishni orzu qilar edilar. Lekin ularga bu kelajakni ko'rish nasib etmadi - ikkinchi jahon urushi boshlandi. Cho'yanboy Vohidov yurtini, kichkina Erkinni himoya qilish uchun urushga otlandi. Garchi o'sha paytda yosh bo'lsa ham, Erkin Vohidov urush dahshatlarini kichikina yuraklari bilan his etdi. Keyinchalik o'shandagi tuyg'ularini "Nido" dostonida aks ettirdi.

Uning otasi urishdan tirik qaytdi, lekin ko'p o'tmay olgan jarohatlarining asoratida vafot etdi. Erkinning onasi ham ko'p o'tmay bu dunyoni tark etdi. Qo'shaloq kelgan balo yosh Erkinni erta ulg'aytirdi. Aytishlaricha, dardi bo'lmagan shoir shoir emas ekan. Balki ana shu fojia - ota-onasidan erta judo bo'lish ham uni shoirga aylantirgandir. U tog'asi Karim Sohiboyev qo'lida katta bo'ldi. Karim Sohiboyev kasbi bo'yicha huquqshunos, lekin she'riyatni, badiiy so'z sehrini nozik anglay oladigan inson edi. Uning Toshkentdagi uyida tez-tez badiiy yig'inlar, mushoiralar bo'lib turar, bunday izdihomlarda turli san'at va adabiyot namoyondalari ishtirok etar edilar.

O'sha paytda bo'lajak shoir G'ayratiy domlaning adabiy to'garagiga qatnar edi. U bu yerda adabiyot sirlarini o'rgandi. Maktabni tamomlagach, Erkin Vohidov Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kirdi.

Shu davrdan boshlab, shoirning ijodi gullab-yashnadi, uning asarlari Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, Zulfiya kabi zabardast adabiyot darg'alarining nazariga tushdi. Ularning ijobiy e'tirofidan ruhlarga Erkin Vohidov yanada go'zal, yanada rang-barang asarlar yaratishga sidqidildan harakat qildi.

Uning ilk she'riy to'plami- "Tong nafasi" yoshlar orasida juda mashhur bo'ldi, qo'lma-qo'l bo'lib o'qildi. Undan keyingi to'plamlari: "Qo'shig'im sizga", "Aql va yurak", "Mening yulduzim", "Tirik sayyoralar", "Sharqiy qirg'oq", "Bedorlik" ba boshqalar dunyo yuziga ko'rdi. Bu to'plamlarning har biri chop etilganida shov-shuv paydo bo'ldi, yoshlar ulardagi she'rlarni yod oldi, san'atkorlar kuyga solib qo'shiq qildi.

Shoirning o'ktam ovozi dunyoning eng buyuk, dong'i ketgan Nyu-York, Moskva Berlin, Dehli, Kiyev kabi sahnalaridan yangradi. U bu safarlarning har biridan olam-olam taassurotlar bilan qaytar va ularni o'z

asarlari aks etgan. “Arslon o’rgatuvchi”, “Azganush”, “Ararat cho’qqisiga”, “Yelkan” kabi she’rlari bunga yaqqol misol bo’la oladi.

Erkin Vohidov g’azal janirida ham ijod qildi. G’azal uning qaytadan xalq qalbidan joy olishiga salmoqli hissa qo’shdi. U hazrat Alisher Navoiyning chin muxlisi edi, lekin o’zini uning yonida turishga noloyiq deb hisoblardi. Bu fikrini “Yoshlik devona”ning debocha qismida shunday ifodalaydi:

Istadim sayr aylamoqni

Men g’azal bo’stonida.

Kulmangiz, ne bor senga deb

Mir Alisher yonida.

Shoirning “Tun bilan yig’labdi bulbul”, “Barcha shodlik senga bo’lsin”, “Dildorga noma yozdim” kabi she’rlari uning g’azalnavislikka bo’lgan intilishi natijasidir. Har bir ijodkorning o’ziga xos ijod usuli bo’ladi. Erkin Vohidovda ana shunday uslub mavjud edi: latiflik, soddalik, tasvirning aniqligi. Misralardagi so’zlarning o’zaro uyg’unligi shu darajadagi, birorta so’zni o’z o’rnida emas deya olmaysiz.

Qaro qoshing, qalam qoshing

Qiyiq qayrilma qoshing, qiz

Qilur qatlamga qasd qayrab-

Qilich qotil qaroshing qiz

Qafasda qalb quashing qiynab,

Qanot qoqmoqqa qo’yaysan

Qarab qo’ygil qiyo

Qalbimni qizdirgan quyoshing qiz.

Erkin Vohidov turli nashriyotlarda turli lavozimlarda faoliyat yuritdi. Qayerda ishlamasin, u sidqidildan mehnat qildi, vazifalariga mas’uliyat bilan yondashdi.

Bu mas’uliyat uning tarjimalarida ham o’z aksini ko’rsatdi. Tarjima – murakkab soha. Tarjimon biror-bir asarni o’z tiliga o’girmoqchi bo’lganida eng avvalo, she’rdagi asosiy fikrni o’z xalqining dunyoqarashiga mos tarzda shunday tarjima qilishi kerakki, u asl jozibasini yo’qotmasin.

Erkin Vohidov ana shunday noyob mahoratga ega ijodkor edi. Shoirning tarjimalarida faqat ungagina xos bo’lgan usullar qo’llanganki, bu shoirni ushbu asarlarning asl egalari hammuallif qilib qo’yadi. Erkin Vohidov A.S.Pushkin, F.Shiller, S.Kaputnekyan, Sergey Yesenin, G.Emin, Rasul Hamzatov va boshqalarning asarlarini ulkan mahorat bilan shunday tarjima qildiki, asl muallifini bilmagan odam ularning muallifi Erkin Vohidovning o’zi deb o’ylashi mumkin.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, shoir bir qator davlat lavozimlarida, ya'ni 1995-2000-yillarda xalqaro munosabatlar va parlamentlararo aloqalar qo'mitasi raisi, 2005-2009-yillarda Oliy Majlis Senatining ma'rifiy, madaniy, ilmiy va sport masalalari qo'mitasining raisi lavozimlarida ishladi. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarning unumli yechimga o'z hissasini qo'sha oldi. Hukumat ham uning mehnatlarini munosib baholadi – Erkin Vohidovga O'zbekiston Qahramoni unvoni berildi.

Bu davrda u avvalgidan kamroq ijod qildi. Buni tushunsa bo'ladi – davlat ishlari kezi kelganda butun vaqti va kuchini olardi. Bu davrda yozgan she'rlari o'zida shoirning ortirgan hayotiy tajribalarini o'z ichiga oldi. U o'zining “Demang, shoir tinib ketdi” she'rida kam yozayotgani haqida shunday degan:

*Siz, ey lutf bahrida g'avvos,
U sizni sog'inib ketdi.
Demang shoir jimib ketdi,
G'azal yozmay tinib ketdi
Tinib ketsa, bilingizki,
Yog'och otga minib ketdi.*

Erkin Vohidov o'zining yoshiga xos bo'lgan salobat, donishmandlik bilan odamlarni, ular o'rtasidagi munosabatlarni kuzatdi va o'z fikrlarini ko'p hollarda to'rtliklarda ifoda qildi:

*O'zbekning xo'p so'zlari bor mehribon er -
Gapin aytib sizlarni bir kuldiraman.
U xotinga, mendan oldin o'lmagin, der
Qo'shib qo'yar, o'lsang xuddi o'ldiraman.*

Shoirning she'rlarida ona-yurtga, xalqga, o'zbek tiliga bo'lgan ulkan mehr-muhabbati ko'rinib turardi. Bu otashin tuyg'uni quyidagi misralarida ko'rish mumkin:

O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa

*Oltin boshning kalla bo'lgani shudir.
Bedil qolib Bemyan Bedniyni suysa
Qora sochning malla bo'lgani shudir.
O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa,
Dod demoqqa palla bo'lgani shudir.
Ma'rifatdan ayru o'ynasa, kulsa,
Aza chog'i yalla bo'lgani shudir*

(“O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa” she'ridan)

Shoir ketdi. Adabiyotni yetim qilib, ixlosmandlarining bag'rini yondirib, u dunyodagi mushoiraga ketdi. Balki u yerda shoirmi Navoiy,

Bedil yoki Muhammad Yusuf kutib turgandir, kim biladi yana. Lekin uning bu dunyoda buyuk merosi qoldi. Erki Vohidov ketdi. Lekin u endi o`z asarlarida, ulug`vor “O`zbekim” qasidasida, “Nido”, “Ruhlar isyoni” kabi yorqin dostonlarid, go`zal she`rlarida yashaydi. Toki O`zbekistonimiz, o`zbek xalqimiz bor ekan, Erkin Vohidov nomi yodimizdan o`chmaydi. Harqalay, men bunga ishonaman.

Хожиева М. 5-синфда Эркин Воҳидовнинг “Нидо” достонини ўрганиш.....	268
Бегимов Ў. Миллий рух абадияти.....	270
Қурбонова Ф. Адабий таълимда Эркин Воҳидовнинг “Ўзбегим” касидасини ўрганиш.....	274
Лафасов У.П. Эркин Воҳидов – миллат куйчиси.....	278
Жамолиддинов М. Умумтаълим мактабларида Эркин Воҳидов ижодини ўрганишдаги долзарб муаммолар.....	282
Turayeva M. Erkin Vohidov shoir va adabiy muhit.....	284
Ҳамидов Х.Х. Эркин Воҳидов ижоди турк тадқиқотчилари назарида.....	288
To'rayeva M., Tursunbayeva D. Erkin Vohidov as the great poet and translator.....	292
Тошпўлатов А. Шеъринг новелла устаси.....	296
Шарипова М. Шеъринг айрим муштарак нуқталар.....	300
Xujamberdiyeva Sh.K. El ardog'idagi ijodkor.....	303
Янгибаева Н. Эркин Воҳидов лирикасида туйғулар реализми ва фалсафий идрок яхлитлиги.....	307
Бахриддинова Д. “Рухлар исёни” достонида ҳинд исёнкори тимсолида миллий озодлик масалаларининг ёритилиши.....	310
Tillayeva Sh.X. O'quvchilar mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonining ahamiyati.....	317
Раҳмонова Ш. Эркин Воҳидов ижоди ва арузи.....	321
Rahmonova Sh.M., Yakubova F.A. Erkin Vohidov qasidalarining vazn xususiyatlari.....	326
Мўминова С.Х. “Эркин ўғлингман, қабул эт...”.....	328
Xolmuradova M. Kamtarin va zahmatkash inson.....	320
Усмонова А. Ижодкор “изтироб”и ва сўзининг латофати.....	332
Nayitova L.O'. Erkin Vohidov ijodini o'qitishga doir ayrim mulohazalar.....	336
Xudoyarova D. Erkin Vohidov: “O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa...”.....	339
Обиджонова М.Қ. Табиат тасвирида бадий маҳорат.....	341
Ёқубова С. Сухбатларда сайқалланган сатрлар.....	344
Каримова Н. Шоирнинг ушалган орзуси.....	348
Ҳамидова М. “Рухлар исёни” достонида Эркин Воҳидовнинг бадий маҳорати.....	349
Мўминжон Сулаймонов, Сайёра Содалиева. Эркин Воҳидов ижодида тазод санъати.....	354